

## “DARYO ORTIDAGI YIG‘I” QISSASIDA AVTOBIOGRAFIK REALIZM VA XOTIRA JAROHATLARI TALQINI

Temirova Niginabonu Umidjon qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18268522>

**Annotatsiya.** Maqolada Q. Norqobilning “Daryo ortidagi yig‘i” qissasi misolida urushdan qolgan xotira jarohatlarining badiiy aks etishi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** urush, ruhiy holat, intervyu, harbiy, avtobiografik, “yalang‘och haqiqat”.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается художественное воплощение травматических воспоминаний о войне и их психологическое отражение в повести К. Норкобила “Плач за рекой”.

**Ключевые слова:** война, душевное состояние, интервью, военные, автобиографический, “голая правда”.

**Abstract.** This article explores the artistic reflection of post-war traumatic memories and their psychological impact, based on the case study of Q. Norqobil’s story “The Lament Beyond the River”.

**Keywords:** war, state of mind, interview, military, autobiographical, “naked truth”.

**Kirish.** Har qanday ijodkorning badiiy olami u nafas olgan ijtimoiy iqlim va hayotiy kechinmalar asosida shakllanadi. Qobil Norqobil ijodiy taqdirining shakllanishida Afg‘onistonning olovli nuqtalarida o‘tagan harbiy xizmati hal qiluvchi burilish nuqtasi bo‘ldi. Maktab ostonasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri janggohga otlangan yosh adibning xotiralari va ruhiy jarohatlari uning keyingi adabiy faoliyatida markaziy mavzuni belgilab berdi. Adib asarlarida urush shunchaki fon emas, balki insoniyat fojiasining eng achchiq ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Norqobil o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan mudhish manzaralar, safdoshlaridan ayrilish dardi va o‘sha davr siyosatining g‘ayriinsoniy mohiyati uning bitiklarida bor bo‘y-basti bilan aks etadi. Yozuvchi Afg‘on zaminidagi to‘qnashuvlarni shunchaki jang emas, balki mustabid tuzumning qurboniga aylangan insonlar fojiasi sifatida badiiy tadqiq etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Q.Norqobil o‘z intervyularida Afg‘oniston urushi xotiralarini quyidagicha yodga oladi: “Afg‘onistonga borishimiz haqida bilmaganman... Ko‘pchilik bilmagan. Avval Turkmanistonga olib borishdi, bir oylar o‘tganidan keyin ofitserlar aytishni boshladi Afg‘oniston haqida... Qochib bo‘lmasa, “bormayman” deb ayta olmasang. Ming qahramonlik ruhi bilan tarbiyalamasin, baribir o‘ylaysan, “qaytib kelarmikanman?” deb. Meningcha, hamma bolalarning xayolida shu bor edi. Xullas, bizni avvaliga yuk mashinasida Kobulga olib borishdi. Tushganimdan keyin boshqacha bir holat edi... U yerda askar bolalarning yuzlari sarg‘ayib ketganday edi. Nursiz yuzlar edi. O‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz va tojiklar ko‘p edi safdoshlarim orasida... Bilasizmi, 12-

may, 1987-yilda... biz qurshovda qoldik. Bu mening ikkinchi tug‘ilgan kunim edi. Atrofda o‘liklar... Nima bo‘lganini bilmaganman, ochiqchasiga. Bir mashinada uch kishi tirik qoldik. Qurshov – yomon narsa. Shunda o‘limni ko‘rdim. Bilasizmi, dunyoda tinchlikdan azizroq ne‘mat yo‘q... Mayda-chuyda dardlar, tashvishlar... Noliyotgan odamni ko‘rsam rahmim keladi...” [2:96].

**Adabiyotlar tahlili.** Yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, bu endigina yetuklik ostonasiga qadam tashlayotgan, hali dunyoqarashi ham, xarakteri ham shakllanib ulgurmagan o‘spirinning iztiroblari. U hali voqelik daryosining girdoblari uni qayoqlarga oqizib ketishi mumkinligini anglab yetmagan, shunchaki katta siyosatning yosh qurboniga aylangan. Yuzlari sarg‘ayib, ko‘zlarida nur qolmagan safdoshlarining manzarasini ko‘rish, hatto o‘zining “ikkinchi tug‘ilgan kuni”da – 1987-yil 12-mayda – o‘lim bilan yuzma-yuz kelib, qurshovda qolish kabi dahshatli tajribalar uning ruhiyatida chuqur jarohat qoldirgan. Ammo, ayni shu qiyinchiliklar, o‘limdan saqlanib qolishdek murosasiz vaziyatlarda insonning hayotning qadrini anglashiga sabab bo‘ladi. Adibning “dunyo-da tinchlikdan azizroq ne‘mat yo‘q” degan falsafasi, aynan shu mashaqqatli yo‘ldan o‘tganidan keyin shakllangan. U mayda-chuyda tashvishlarga noliyotgan odamlarga ham shafqat bilan qaray boshlaydi, chunki uning ko‘z o‘ngida o‘lim va azob-uqubatning haqiqiy qiyofasi gavalangan edi. Bu o‘spirin o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqelikning dahshatidan shu qadar ta’sirlanadiki, kelajakda xuddi shu ko‘rgan-kechirganlarini, urushning asl basharasini qog‘ozga tushirish uning asosiy maqsadi va taqdiriga aylanadi. Chunki u biladiki, bunday fojialar takrorlanmasligi kerak va bu haqiqatni boshqalarga yetkazish – uning yozuvchi sifatida muqaddas burchidir.

**Natijalar.** Aynan ana shu og‘riqli kechinmalar va tinchlikka bo‘lgan cheksiz intilishlar Q.Norqobilning butun ijodiga yo‘nalish berdi. Shu sababli, uning qalamiga mansub barcha qissa, roman va hikoyalar aynan urush mavzusiga bag‘ishlangan. Biz sevib mutolaa qilgan “Daryo ortidagi yig‘i” qissasi ham ana shu ijodiy yo‘nalishning yorqin namunasi. Asar, garchi boshqa yozuvchilarning urushni aks ettirgan asarlaridan tubdan farq qilmasa-da, o‘quvchiga qahramonlar ruhiyatini teran anglashga katta yordam beradi. Yozuvchi asar tasvirini yanada jonli va haqqoniy chiqarish maqsadida hamma qahramonlarni o‘z o‘rnida, bor ruhiy olami bilan tasvirlaydi. Bu o‘zidan tortib to boshqa ishtirokchilargacha bo‘lgan har bir personajning shaxsiy fojiasini, ichki kechinmalarini chinakamiga his qilish imkonini beradi. Natijada, asar shunchaki voqea emas, balki jonli inson taqdirining, urushning inson ruhiyatiga solgan chuqur izlarining badiiy yig‘indisiga aylanadi.

“Daryo ortidagi yig‘i” qissasida urushning nafaqat tiriklar, balki marhumlar ustidan ham o‘tkazgan g‘ayriinsoniy hukmi qahramonlar o‘rtasidagi dialoglar orqali mahorat bilan ochib beriladi. Xususan, Haydar ismli safdoshning taqdiri haqidagi quyidagi suhbat asarning g‘oyaviy cho‘qqilaridan biridir:

– Haydarni... topisholmadimi? – men “o‘ligini” deyolmadim.

– Yo‘q. Enagarlar, o‘ligini ham berishmadi. Necha marotaba gaplashdi biznikilar, – Rinat qo‘llarini musht qilib gapira boshladi. – Ular shunchalikka borishadi. Bizning jasadimizdan ham xun olishadi.

– Nega endi?

– Murdani pulga yoki texnikaga alishadilar, itlar, – dedi Musurmon.”

Bosh qahramonning Haydar haqida so‘rayotganda “o‘ligini” so‘zini ishlatolmasligi – bu urush jarohati (trauma)ning yaqqol ko‘rinishidir. Yaqin do‘stining o‘limini tilga olish, uni jonsiz jism sifatida tasavvur qilish qahramon ongi uchun og‘riqli to‘siq hisoblanadi. Bu holat badiiy adabiyotda insoniy mehr va urush vahshiyliги o‘rtasidagi murosasiz ziddiyatni ifodalashga xizmat qiladi.

Rinat va Musurmonning gaplaridan ma‘lum bo‘ladiki, urush hududida inson hayoti kabi uning o‘limi ham o‘z qiymatini yo‘qotgan. Inson jasadining “texnika” yoki “pul” kabi moddiy buyumlarga almashtirilishi – urushning insoniyatni naqadar tubanlashtirishi, axloqiy mezonlarning butkul yemirilishidan dalolat beradi. “Murdani pulga yoki texnikaga alishadilar” degan jumla orqali adib urushning shafqatsiz biznesga, o‘limning esa savdo predmetiga aylanganini fosh etadi.

Rinatning “Qo‘llarini musht qilib” gapirishi uning ichki g‘azabi va ojizligini ko‘rsatadi. Ular dushman tomondan nafaqat Haydarning hayotini, balki uning so‘nggi manziliga munosib kuzatilish huquqini ham tortib olinganiga chiday olmaydilar. Bu holat safdoshlar o‘rtasidagi rishtalarning urush sharoitida qanchalik muqaddas va ayni paytda fojiali ekanligini tasdiqlaydi.

Asardagi qahramon ruhiyatini tadqiq etishda uning komandir (katta leytenant) bilan bo‘lgan muloqoti muhim konseptual ahamiyatga ega. Ushbu dialog urush sharoitida inson hayotining “statistik ma‘lumot” yoki “harbiy nufuz” darajasiga tushib qolganini ko‘rsatadi.

Komandirning “o‘sha yoqda o‘lsanglar yaxshiroq edi” degan so‘zlari harbiy tizim uchun inson hayotidan ko‘ra, bo‘linmaning (rotaning) hisoboti va nufuzi ustunroq ekanligini anglatadi. Bu psixologik nuqtayi nazardan tirik qolgan askarda “aybdorlik hissi”ni sun‘iy ravishda shakllantirishga qaratilgan tazyiqdir. Askarning jismoniy omon qolishi tizim uchun “sharmandalik” sifatida talqin etilishi – urushning g‘ayriinsoniy tabiatini fosh etadi.

“Qo‘rquv” tushunchasining komandir tomonidan ayblov sifatida ishlatilishi, insoniy tabiatning (o‘z-o‘zini asrash instinkti) inkor etilishini ko‘rsatadi. Vaholanki, askarlarning “imkoni bo‘lmadi” degan javobi real vaziyatdagi mantiqiy xulosadir. Yozuvchi bu yerda yosh askarning tirik qolishga bo‘lgan haqqini ma‘muriy buyruqbozlik qolipiga qarshi qo‘yadi.

Qahramon uchun 12-may “ikkinchi tug‘ilgan kun” bo‘lsa, tizim uchun bu “shikastlangan texnika va yerga urilgan nufuz” kunidir. Bu ziddiyat qahramon ruhiyatida

chuqur sinish hosil qiladi: u o‘limdan qutulib keladi, lekin o‘z safida “o‘lgani yaxshiroq bo‘lgan” kishi sifatida kutib olinadi. Bu kabi detallar Q.Norqobil asarlarining “yalang‘och haqiqat” ustiga qurilganini isbotlaydi. Adib urushni shunchaki jang emas, balki shaxsning o‘z qadr-qimmatini va hayoti uchun ham tizim, ham o‘lim bilan kurashishi sifatida tasvirlaydi. Qobil Norqobilning “Daryo ortidagi yig‘i” qissasi o‘zbek harbiy-psixologik prozasida urush fojiasini badiiy tadqiq etishning yangi bosqichini belgilab beradi. Adib o‘zining shaxsiy harbiy tajribasi va ruhiy kechinmalarini badiiy matn qa‘riga singdirar ekan, asar shunchaki tarixiy voqealar bayoni emas, balki inson ruhiyatining ekstremal sharoitdagi ekzistensial tahliliga aylanadi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Avtobiografik realizm: Adibning intervyularidagi “ikkinchi tug‘ilgan kun” (12-may voqealari), “qurshov” va “o‘lim bilan yuzma-yuz kelish” kabi hayotiy detallar asarning realistik quvvatini ta‘minlagan. Muallif urushni soxta qahramonlik pafosidan xoli tarzda, uning bor vahshiyliги va mantiqsizligi bilan boricha tasvirlash orqali kitobxonni urush haqidagi yalang‘och haqiqat bilan yuzlashtiradi.

2. Psixologik chuqurlik: Qissada inson ruhiyati urushning “dehumanizatsiya” (insoniylikdan mahrum bo‘lish) ta‘sirida tadqiq etiladi. Komandir bilan bo‘lgan dialoglar va murda savdosi bilan bog‘liq lavhalar tizimning shaxs qadriga bo‘lgan bepisandligini fosh etadi. Qahramonlar ruhiyatidagi “nursizlik” – bu butun bir avlodning ma‘naviy-psixologik jarohati (traumasi) sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Jamoa taqdir talqini: Yura, Rashid, Haydar, Qo‘chqor va Yermilin kabi obrazlar orqali urushning millat tanlamaydigan fojia ekanligi, unda barcha qatnashchilar – g‘olib yoki mag‘lub emas, balki siyosiy tuzum qurbonlari ekanligi ko‘rsatiladi. Ularning umumiy dardi “Daryo ortidagi yig‘i” timsolida birlashadi.

4. Falsafiy kontseptsiya: Asarning markaziy g‘oyasi “tinchlikning mutloq qadri” tushunchasiga asoslangan. Muallifning urush daryosidan o‘tib shakllangan dunyoqarashi o‘quvchini hayotning har bir onini qadrlashga, mayda tashvishlar ortidagi ulkan baxtni – tinchlikni anglashga chorlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Q.Norqobil ushbu asari bilan urush fojialarini unutmazlik, xotira jarohatlarini badiiy til bilan davolash va kelajak avlodni bunday xatolardan ogoh etishdek muqaddas ijodiy burchini muvaffaqiyatli bajargan. “Daryo ortidagi yig‘i” – bu nafaqat bir adibning xotiralari, balki insoniyat tarixidagi eng og‘riqli sahifalardan biriga qo‘yilgan badiiy haykaldir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q. Norqobil. Daryo ostidagi yig‘i. -T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
2. Jabborov N. Zamon. Mezon. She‘riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2015. – B. 163.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг тараққиёт тамойиллари. –Тошкент: Мухаррир. 2012.